



Tadqiqot **UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Axmedova Mastura Baxtiyorovna GEOGRAFIYA FANIDA AMALIY BILIM VA KO'NIKMALARNI SUHBAT VA TOPISHMOQLARDAN FOYDALANGAN HOLDA SHAKLLANTIRISH.....	7
2. Aliyeva Xolida Sulaymonovna GEOGRAFIYA FANINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY METODLAR.....	9
3. N.Hayitova GEOGRAFIK XARITA, UNING ELEMENTLARI, TURLARI VA O'QISH METODIKASI.....	11
4. N.Aminov GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH METODLARI	13



ГЕОГРАФИЯ

GEOGRAFIYA FANIDA AMALIY BILIM VA KO'NIKMALARNI SUHBAT VA TOPISHMOQLARDAN FOYDALANGAN HOLDA SHAKLLANTIRISH

Axmedova Mastura Baxtiyorovna
Navoiy viloyat Karmana tuman
24-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Geografiya fani kundalik hayotimiz bilan bog'liq fan. O'quvchilarga o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalaridan tashqari kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarini hal etishda kompetensiyalardan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: namlik koeffisienti, yalpi radiatsiya, tarqoq radiatsiya, ufq, yillik bug'lanish, soat mintaqasi.

Geografiya – tabiiy fanlar sultoni. U ulkan, saxiy ulug'vor va betakror Yer deb atalmish hayot makoniga aylangan borliqni o'rganuvchi fandır. Geografiya tabiatning bir bo'lagi emas, balki uni bir butun, yaxlit holda o'rganadi, hodisalarni majmuan tahlil qiladi. Shu jihatdan qaraganda geografiya o'quv fani o'quvchilarda ilmiy va amaliy bilimlarni yanada chuqurroq egallashni hamda uni tahlil qilishni tabiat bilan bog'liq bo'lganligi uchun amaliy bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirishni talab etadi.

Hozirgi kunda geografiya o'qituvchilari zimmasida dars jarayonida amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish kabi mas'uliyat turadi. Buning uchun esa har bir dars rejalashtirilganda amaliy ishlardan ham namunalar kiritish zarurdir. Qachonki, o'quvchi fandan chuqur bilim va ko'nikmaga ega bo'lsagina, unda ushbu fan bo'yicha malaka hosil bo'lishi mumkin.

Dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan shug'ullanganda zarur bo'ladigan jihozlar: darslik, xarita, atlas, yozuvsiz xarita, globus, chizg'ich va hokazolar. Quyida dars jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan amaliy ishlardan namunalar keltiramiz.

1. Agar daryo suv oqimi tezligi 3,1 m/sek va suv oqimi sarfi 66,34 m³/sek bo'lsa, mazkur joyda daryoning ko'ndalang qismi qancha bo'ladi?

Yechish: Suv sarfini aniqlash formulasi: $Q = F \times V$

Berilgan: $Q - 66,34 \text{ m}^3/\text{sek}$. $V - 3,1 \text{ m/sek}$.

$F = Q : V = 66,34 \text{ m}^3/\text{sek} : 3,1 \text{ m/sek} = 21,4 \text{ m}^2$

Javob: Daryoning ko'ndalang kesimi $21,4 \text{ m}^2$

2. Qizilqum cho'lining ayrim hududlarida yillik yog'in 100 mm va yillik bug'lanish 1000 mm. Namlik koeffisienti qancha bo'lishini hisoblab chiqing?

Yechish: Namlik koeffisientini aniqlash formulasi: $K = YO$ (yog'in)

B (bug'lanish) Demak: $K = 100 \text{ mm} / 1000 \text{ mm} = 0,1$.

Javob: Namlik koeffisienti 0,1ga teng

3. Yer yuziga Quyoshdan tushayotgan radiatsiya "A" nuqtada quyidagicha taqsimlanmoqda:

1) Tarqoq radiatsiya – 40 kkal 2) Yutilgan radiatsiya – 80 kkal

Yalpi radiatsiya – 160 kkal

Bu misolda qaytgan radiatsiya qancha ekanligini aniqlab chiqing?

Bajarish: Biz quyidagi foydalanamiz: $R = R_T + R_{yu} + R_q$

Ya'ni R -yalpi, R_T -tarqoq, R_{yu} -yutilgan, R_q -qaytgan radiatsiya.

Masalada R_k -noma'lum, demak: $R_q = R(R_T + R_{yu}) = 160 \text{ kkal}$ -

$(40 \text{ kkal} + 80 \text{ kkal}) = 160 - 120 = 40 \text{ kkal}$.

Javob: "A" nuqtada qaytgan radiatsiya miqdori 40 kkal.



4. 30° g'.uz. nuqtani qaysi soat mintaqasida ekanligini aniqlang?

Bajarish: Buning uchun ushbu sonni 360° dan ayiramiz:

$360^{\circ}-30^{\circ}=330^{\circ}$. Hosil bo'lgan ayirmani 15° ga bo'lamiz: $330:15=22$

Demak: berilgan nuqta 22-soat mintaqasida joylashgan bo'ladi.

Eslatma: Agar nuqta sharqiy (uzunlikda) yarimsharda joylashgan bo'lsa, uni to'g'ridan to'g'ri 15° ga bo'lamiz.

5. Agar tog'ning etagida harorat $+30^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, tepasida harorat -12°C bo'lsa, bu tog'ning balandligi qanchaga teng bo'ladi?

Yechish: Buning uchun havo haroratini har 1000m.ga 6°C dan pasayishini hisobga olish kerak. Ikkala sonni qo'shamiz: $30^{\circ}\text{C}+12^{\circ}\text{C}=42^{\circ}\text{C}$ $42:6=7$ **Javob:** 7000 m.

Bu fanni o'rganishga har bir ziyoli o'z qarashlari bilan yondoshadilar. Bugungi kunga kelib, geografiya fanini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Geografiya darslarini hayotga bog'lab o'tish, qiziqarli va ijodiy tashkil etish har bir o'qituvchidan mahorat talab etadi. Geografiya darslarida "Geografik suhbat" metodidan foydalanish yaxshi natija beradi. Suhbat metodi har xil mavzuga mos ravishda tashkil etilishi mumkin. Bu metod orqali olingan bilimlar yanada mustahkamlanadi, hatto kichik sahna ko'rinishlari tarsida ham foydalansa bo'ladi. Masalan: Ikki o'rtoq suhbat.

- Do'stim, ufqning 4 tomoni bor, shundaymi?

- Shunday.

- Qani aytingchi bu tomonlarni qanday ko'rsatkichlarga qarab aniqlash mumkin?

- Agar kompos asbobi bo'lsa uning yordamida, bo'lmasa quyosh va yulduzlarga qarab, shuningdek mahalliy belgilarga qarab ham aniqlash mumkin.

- Kungaboqar va shu kabi yorug'liksevar o'simliklarga qarab ham aniqlash mumkinmi?

- Albatta mumkin. Kungaboqar ertalab sharqqa, tushda janubga, kechga yaqin g'arbga va yarim tunda shimolga qaraydi.

Mavzularga oid mana shunday suhbatlardan foydalanish o'quvchilarning esidan chiqmaydigan ma'lumotlar bilan tanishishiga yordam beradi.

Topishmoqlar o'zbek va jahon xalqlarining qadimgi xalq og'zaki ijodlaridan biri hisoblanadi. Ularda asosan tabiatning turli hodisalari, jismlari juda aniq tasvirlanadi. Bu topishmoqlar o'z o'rnida hammani qiziqtiradi va topqirlikka undaydi. Topishmoqlardan darslarda samarali foydalanish o'quvchini fanga bo'lgan qiziqishlarini, zukko va fikrlar teranligini oshiradi. O'qituvchiga esa o'quvchilarni ichki dunyosini o'rganishga, ularning individual xususiyatlarini aniqlashga yordamlashadi.

Yer yuzida shunday nuqta bor,

Kecha-kunduz farqlanmas unda,

Yulduzi ham so'nmaydi zinhor,

Charaqlaydi kunda ham tunda. (Shimoliy qutb)

- Yerning tabiiy yo'ldoshi

Oydindagi so'z boshi. (Oy)

Geografiya darslarida o'quvchilarni qiziqishini orttirish maqsadida geografik topishmoqlardan, "Testlardan" "Geografik tavsif" kabilardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlari o'sadi, ularning izlanishlari ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Donyor Mavjudov. "Geografiyadan topishmoqlar" "Mehnat" nashriyoti. 2001 yil

2. Q. Bahromov, G. Halimova "Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari". "Navro'z" nashriyoti. Toshkent-2017

3. V. Rafiqov "Qiziqarli geografiya". "Sharq" nashriyoti. Toshkent-2010



GEOGRAFIYA FANINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Aliyeva Xolida Sulaymonovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
18-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab darslarida geografiya fanini chuqurroq o'qitish va o'quvchilarga sifatli bilim berish bo'yicha fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: geografik bilimlar, tasavvur, geografik muhit, geografiya asosi.

Geografik bilimlarni tushunish va o'rganish va uni barqaror rivojlanishga tatbiq etish nafaqat bilimning o'ziga, balki u qanday o'qitilishi va o'rganilishiga ham bog'liqdir. Geografiyada barqarorlikni ta'minlash uchun o'qitish va o'qitish usullari to'liq o'rganilmagan.

Bolalarga o'qitiladigan har bir fan ma'lum bir asosiy elementlarga va asoslarga ega. Ushbu asosiy elementlar va asoslar har qanday aniq mavzuning mazmunini cheklash uchun javobgardir va ular belgilangan mavzuning mazmuniga ta'sir qiladi. Mavzuni tushunish uchun ushbu asoslar zarur. Boshqa har qanday fan kabi, ushbu asoslarni bilish ham geografiyani o'qitish uchun juda muhimdir. Shunday qilib, ushbu ilmiy narsalar haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish uchun ma'lum bir mamlakatning geografik muhitini to'g'ri tushuntirish zarur. Quyidagi beshta geografiyaning asosiy elementlari:

1. Tabiiy sharoit
2. Yer yoki yer yuzasining shakllanishi
3. Iqlim
4. O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari
5. Inson yoki inson faoliyati

Bu besh elementning barchasi birgalikda geografik muhit sifatida tanilgan va bu elementlar asosan geografik nazorat uchun javobgardir. Jismoniy sharoitlar geografik sharoitlarning yana bir nomi deb ayta olamiz. Boshqa narsalar jismoniy sharoitlar asosida ishlab chiqilgan. Jismoniy sharoitlar yer yoki yer yuzasining shakllanishi bilan boshqariladi. Atmosferani yaratish jismoniy sharoitlarga va atmosferaga bog'liq yoki atrof-muhit aholining hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, tabiiy sharoitlarni puxta o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat to'g'risida to'g'ri va muvozanatli fikrga ega bo'lish uchun u yerda mavjud bo'lgan tabiiy sharoitlar to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish zarur. Qadimgi kunlarda jismoniy sharoitlarni boshqaradigan kuchlarni va qonunlarni o'rganish kifoya edi. Ammo hozirgi asrda u o'z ahamiyatini yo'qotdi. Zamonaviy geografiya jismoniy sharoitda turli xil o'zgarishlarga olib keladigan turli sabablarni bilish uchun ko'proq stressni keltirib chiqaradi. Hozirda, dastlab yer juda issiq bo'lganligi va u xuddi olov massasi kabi bo'lganligi haqida umumiy fikrga kelishilgan. U asta-sekin soviydi va shu sovutish jarayonida yer yuzasi hosil bo'ldi. Shunday qilib, sovutish jarayoni yer yuziga ta'sir qildi. Ushbu o'zgarishlar ma'lum omillar tufayli yuzaga keldi. Agar yer ekvator dan ancha uzoqroq joyda joylashgan bo'lsa (masalan, yerning janubiy qismi), u butun yil davomida qor bilan qoplanishi mumkin va agar yer (yoki mamlakat) yaqinida joylashgan bo'lsa ekvator, keyin uning iqlimi juda issiq bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, biz cho'llar yil davomida issiq va quruq deb aytishimiz mumkin. Agar mintaqa dengiz qirg'og'i yaqinida joylashgan bo'lsa, uning iqlimi mo'tadil bo'ladi. Keyinchalik balandliklarga ega bo'lgan nuqtalar tog'larga o'sdi va keyinchalik chuqurroq bo'lganlar okean va vodiylarga aylandi. O'zini saqlab qolish uchun tabiat ba'zi joylarda tekisliklarni yaratdi va boshqa joylarda platolarni keltirib chiqardi. Tabiatdagi har qanday o'zgarishlarni amalga oshirish inson imkoniyatidan tashqarida, ammo tabiatdagi ozgina o'zgarishlarga inson ta'sir qilishi mumkin, ammo bunday o'zgarishlar natijada bo'ladi. Hozirda yer yuzasining paydo bo'lishi geologiyani o'rganish qismini tashkil qiladi, ammo geografiya uni umuman e'tiborsiz qoldirolmaydi. Buni o'rganish kerak, chunki erning paydo bo'lishi asosan shu erning iqlimi va hosilasi uchun javobgardir. Hindistonda o'sha cho'l tarqalmoqda. Hindiston hukumati ushbu kengayishni tekshirish uchun jiddiy harakatlarni amalga oshirdi. Ushbu kengayishni tekshirish uchun bir qator daraxtlar ekilgan. Atrof-muhit iqlim geografik sharoitlarga ta'sir ko'rsatadigan juda muhim omil. Bu jismoniy xususiyatlarni boshqaradigan va ta'sir qiluvchi asosiy elementlardan biridir. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, odamlarning



turmush sharoitlariga ta'sir qiladi; ovqatlanish odatlari, urf-odatlari. Agar bizda Bengaliyada guruch, Panjobda bug'doy va Assamda choy bog'lari mavjud bo'lsa, buning hammasi geografik xususiyatlar va iqlim sharoitlari bilan bog'liq. Kundalik hayotimizda iqlimning inson hayotiga ta'sirini ko'ramiz. Dunyo iqlim sharoiti haqida ma'lumotga ega bo'lgan odam uchun Geografiyani o'rganish oson kechadi. U o'simliklarning boyligiga iqlim sharoiti katta ta'sir ko'rsatishini biladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchilar uchun ushbu mavzuga o'xshash mavzular juda qiziqarli ya'ni hikoya qilib berish usuli bilan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov I.K Geografiya fanining asosiy ma'lumotlari. Toshkent 2013



GEOGRAFIK XARITA, UNING ELEMENTLARI, TURLARI VA O'QISH METODIKASI

N.Hayitova.

Navoiy viloyati Karmana tumaniga
qarashli 12 umumiy o'rta ta'lim maktabining
Geografiya fani o'qituvchisi

Annotasiya: maqolada o'quvchilarni Geografiya fanidan xarita bilan ishlash metodikasi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Kartografiya, proeksiya, geografik xarita, xaritaning elementlari, xarita turlari, xaritashunoslik, kartometriya, matematik kartografiya.

Xarita atamasi keltirilgan hodisaning tuzilishini his etish imkonini beradigan model sinonimi sifatida fanning ko'plab sohalarida foydalanilgan. Demak, kartografiya faqatgina tasvirlashdan ham ko'proq tushuniladi; bu shuningdek xaritaga tushirilishi kerak bo'lgan hodisani bilish ham hisoblanadi. "Kartografik usul" deyilganda, har kim hodisa yoki zonalarni ularning ob'ektlar va geofazoviy tuzilishi orasidagi geofazoviy aloqalarni aks ettirish usulini tushunadi. Xaritada geofazoviy axborot tasvirlanayotganda axborot tarkibi orasida asoslilariga yaroqli joylar tufayli o'zini cheklash zarur.

Kartografiya – tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarning joylashishini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini hamda ularning xususiyatlarini, vaqt o'tishi bilan o'zgarishini, maxsus tasvir-obrazli belgi modellar vositasida matematik yo'l bilan tekislikda kichraytirib generalizasiya qilib tasvirlashni va undan tadqiqot usuli asosida manba sifatida foydalanishni o'rgatuvchi fandır.

Kartografiya qadimiy fanlardan biri bo'lib, bu fan to'g'risidagi dastlabki ta'rifni miloddan ikki asr ilgari yashagan ulug' olim Klavdiya Ptolomey tomonidan berilgan desa bo'ladi. U geografiya fanining vazifasi Yer yuzasini kartografik jihatdan tasvirlashdan iboratdir degan edi. Vaqt o'tishi bilan kartografiya fanining ta'rihi ham o'zgarib takomillasha bordi va yaqin vaqtlargacha kartografiya-geografik xaritalar to'g'risidagi fan deb, uning asosiy vazifasi geografik xaritalarni tuzish va undan foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iborat deb kelingan. "Xarita" atamasi o'rta asrlardan buen foydalanib kelinmoqda. Bu atama lotincha "chartes" so'zidan olinib papyrus qog'oz varag'i degan tushunchani bildiradi. Hozirgi vaqtda "xarita" atamasi dunyoning turli davlatlar tillarida ishlatilib kelinmoqda. Masalan, fransuzcha - arte, nemischa - qarte, italyancha va portugalcha - arta, gollandcha - avval va h.z.lar. Shu bilan bir qatorda bu atama o'rniga, bir qancha mamlakatlarda boshqa atama ya'ni "mappa" so'zini ishlatib, polotoni bir bo'lagi degan ma'noni bildiradi. Masalan, inglizlar - map deb ataydilar. Ba'zi mamlakatlarda ikkala atama ya'ni inglizlar "chart" so'zini dengiz va aeronavigasiya xaritalarida, ispanlar "arta" atamasini plan, dengiz xaritalarida ishlatadilar. Ba'zi o'rinda butunlay boshqa atamalarni-masalan, yaponiyaliklar tizu, vengerlar-erqep (joy tasviri) degan atamani ishlatadilar.

Ba'zi manbalarda xarita – Yer yuzasini tekislikdagi kichraytirilgan tasviri deb yuritilib kelingan. Haqiqatdan ham geografik xaritalar matematik yo'l bilan hisoblash natijasida Yer ellipsoidini tekislikda kichraytirilib tasvirlanishi natijasida vujudga keladi. Yuqorida aytilganidek, xaritalarda voqea va hodisalar maxsus belgi-obrazli modellar yordamida tasvirlanadi. Tasvirlanayotgan voqea va hodisalarning miqdori, sifati, joylashgan o'rni va boshqa xususiyatlarini xaritaga qarab bilish mumkin. Lekin xaritaning maqsadi, masshtabi va ishlatilishiga qarab tasvirlanayotgan tafsilotlar saralanib, umumlashtirilib, ya'ni generalizasiya qilingan holda tasvirlanadi.

Kartografik tasvir geografik xaritaning asosiy qismi bo'lib, tasvirlanayotgan hududning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini, voqea va hodisalarning geografik joylashish xususiyatlarini, ularning o'zaro bog'liqligi va hatto o'zgarishini bashorat qilish imkoniyatiga ham egadir. Xarita, okean va dengizda suzishda, havoda uchishda, turistik sayohatlarda va harbiy sohada asosiy yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Xarita xalq xo'jaligimizni rejalashtirishda, geologik qidiruv ishlarida, qurilishlarni loyihalashda, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini to'g'ri taqsimlashda va hududlarni har taraflama rivojlantirishda foydalaniladigan asosiy manbalardan



biridir. Kartografiya fani ko‘pgina fanlar, chunonchi geografiya, geodeziya, topografiya, matematika, geoinformatika, statistika fanlari bilan uzviy bog‘langandir. Kartografiya, o‘z navbatida bir necha mustaqil qismlarga bo‘linadi: xaritashunoslik, kartometriya, matematik kartografiya, xaritalarni chizish va jihozlash, xaritalarni tuzish va tahrir qilish, xaritalarni nashr qilish, xaritalarni modellashtirish, kartografik menejment va boshqalar.

Xaritashunoslik kartografiya fanining nazariy tomoni va uning bosib o‘tgan tarixiy taraqqiyot yo‘li, xaritalar va boshqa kartografik tasvirlarning tiplarini va xillarini, xaritadan foydalanish usullarini, har xil kartografik asarlarni tahlil qilish usullaridan bahs etadi. Matematik kartografiya geografik xaritalar tuzishda ishlatiladigan kartografik proeksiyalarni, ya’ni Yer ellipsoidini tekis yuzada tasvirlash usullarini o‘rgatadi. Kartometriya xaritalarda maydon, masofa, hajmlarini hisoblash yo‘llarini, relefni o‘rganish natijasida miqdor ko‘rsatkichlar asosida sifat ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib berish yo‘llarini o‘rgatadi.

Xaritalarni loyihalash va tahrir qilish kartografiyaning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, xaritaning dastlabki nusxasini (asil) tuzish va uni tahrir qilish usullarini tushuntiradi. Xaritani nashr qilish sohasi, asosan xaritani nashrga tayyorlash va nashr qilish hamda uni yig‘ib, kerak bo‘lsa muqovalash ishlarini o‘rgatadi. Tadqiqotni kartografik usuli o‘ziga xos soha bo‘lib, xaritadagi tasvirlangan voqea va hodisalarni tadqiqot qilish uchun xaritadan foydalanish masalalarini o‘rganish, ya’ni xaritadan tadqiqot manbai sifatida foydalanish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Kartografik menejment kartografiyada yangi soha bo‘lib, kartografik korxonalarini tashkil qilish, xarita ishlab chiqarishni rejalashtirish va tayyor maxsulotni egalariga yetkazib berish va sarf-xarajatlarni, hisob-kitob qilishning yangi usullarini qidirib topish yo‘llarini o‘rganadi.

Geoinformatsion kartografiya kartografiyada yangi tarmoq bo‘lib, xaritadan informatsiya manbai sifatida foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. Kartografiya juda ko‘p fanlarni o‘rganishda foydalanilib, ba’zi bir sohalar uchun maxsus kartografiya tarmoqlar yaratilgan: Masalan, geologik kartografiya, geomorfologik kartografiya, geobotanik kartografiya, tuproqlar kartografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya, geoeologik kartografiya, demografik kartografiya va hokazolar.



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH METODLARI

N.Aminov.

Navoiy viloyati Qiziltepa tumaniga
qarashli 36 umumiy o'rta ta'lim
maktabi Geografiya fani o'qituvchisi

Annotasiya: maqolada an'anaviy va zamonaviy metodlarni afzalliklari va farqli jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy, zamonaviy, hamkorlik pedagogikasi, informatsion metod, reproduktiv metod, frontal metod

O'nlab yillab o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda. An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir. O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars – ko'p hollarda ta'lim jaraenining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- Ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;
- O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- Amaliyot orqali o'rganish;
- Ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- O'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini engilashtiruvchi shaxs;
- O'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli – tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etish metodlari

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muxim talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallagan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baxolash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiyliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarni dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini dadil himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat aks etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchi (o'quvchi, tinglovchilar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni



sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liklikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li-bu mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda.

Zamonaviy ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg‘ulot ma’ruza emas, jamoaning umumiy ishi;
2. Guruhning tajribasi o‘qituvchining tajribasidan ko‘p;
3. O‘quvchilar èsh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko‘ra teng;
4. Har bir o‘quvchi o‘rganilaètgan muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish huquqiga ega;
5. Mashg‘ulotda o‘quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi;
6. Bildirilgan g‘oyalar o‘quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlariga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo‘lishi, ta’lim-tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanishi davr talabi hisoblanadi.

Har bir maktabda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo‘lib turibdi. Buning uchun har bir o‘qituvchi o‘z fanini o‘qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o‘rganib borish orqali o‘z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000